

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI



AKTYORLIK MAHORATI ASOSLARI. SAHNA HARAKATI ASOSLARI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	<i>200 000 - San'at va gumanitar fanlar</i>
Ta'lim sohasi:	<i>210 000 - San'at</i>
Ta'lim yo'nalishi:	<i>60211400 - Vokal san'ati: Akademik xonandalik</i>

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi AMA1409	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-4	ECTS-Kreditlar 9	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Aktyorlik mahorati asoslari. Sahna harakati asoslari	120	150	270
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Bugungi kunda dunyoda intensiv tarzda kechayotgan barcha sohadagi jarayonlar inson tafakkuri jadallik bilan kengayishiga, yangi, avval notanish bo'lgan ma'lumotlarni anglab, o'z maishiy va kasbiy faoliyatida ishlata olishga harakat qilishga, shu bilan bir qatorda, ushbu tafsilotlarga ega bo'lgan ishdan so'ng ma'naviy hordiq chiqarishga bo'layotgan talabning kuchayishi – zamon talabi bo'lib bormoqda.</p> <p>Bakalavriat bosqichi uchun tuzilgan ushbu moslashish jarayonda bo'lajak xonandalar tarbiyalanishida mazkur dasturning o'rni beqiyosdir. Sahna harakati asoslari fani umumkasbiy fan hisoblanadi. Opera xonandalarni dunyo standartlariga javob beradigan bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tarbiyalashda sahna harakati bilimlarining o'rni kattadir. Shu bilimlarni berish maqsadida sahna harakati asoslari fanining o'quv rejaga kiritilganligi uning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilaydi.</p> <p>II. Asosiy qism</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p style="text-align: center;">VII-VIII semestrlar</p> <p style="text-align: center;">1 mavzy: Aktyorlik mahorati elementlari.</p> <p>Diqqat, eshitish, ko'rish, his qilish. Aktyor ijodida tabiiy xatti-harakat - u eng qulay va to'g'ri xolat paydo qiladi. Bularning hammasi qahramon, ijrochilar va tomoshabin qalbida hissiy taassurot tug'diradi. Sahnada hukm surayotgan muhit qahramon yoki ishtirokchilarning shaxsiy his-tuyg'ularidan keskin farq qilsa, bu to'g'ri topilgan ifodaviy vosita bo'ladi. Muxit xatti-harakat rivojlanish jarayonida o'zgaradi. Muhitga dekoratsiya, tovush va musiqalar ta'sir qiladi. Aktyor, rejissyor va ssenografning teatr, kino san'atida aniq yaratgan muhiti– yorqin badiiy ifodaviy vosita hisoblanadi.</p> <p style="text-align: center;">2 mavzy: Aktyorlik kuzatuvlari.</p> <p>Sahnada, yoki suratga tushirish maydonidagi tasavvurdagi sharoitda aktyor tomonidan amalga oshiriladigan shartli harakat. Berilgan shart-sharoit ayni hayotning o'zi emas, uning badiiy tarzda aks ettirilishidir ("Berilgan shart-sharoit" atamasi A.S.Pushkinning "Berilgan shart-sharoitlar" to'g'risidagi manzumasidan olingan). Stanislavskiy bu atama tushunchasini kyengroq tadqiq qiladi: "Berilgan shart-sharoit - pyesa bayoni, dalillar, voqea, davr, makon, zamon va vaqt, hayotiy sharoitlar, aktyor va rejissyorning pyesa haqidagi tushunchalari, o'zidan qo'shimchalar kiritish, mizansahna,</p>			

sahnalashtirish, rassomning dyekoratsiya va liboslari, butaforiya, chiroq hamda tovush va shovqinlar, ijodiy jarayonda aktyorga taklif etiladigan qo‘shimcha vazifalar”. Ammo bularning xammasi speyktakl hayotining to‘qima sharoitidan kelib chiqadi.

3 mavzy: Buyumlarni jonlantirish.

Inson aql – idrok bilan ish yuritib mehnat qurollarini yaratishni o‘rgandi va o‘zining yashash sharoitini tubdan o‘zgartirdi. Insonlar yaratilgan har bir buyumlarga aniq vazifalarni bajarish yuklatilgan. Bu buyumlarga oddiy ko‘z bilan qaraganda ma‘lum bir vazifani bajaruvchi mexanik qurilma sifatida ko‘rinadi. Aslida ham shundaymi?

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek aktyorlik mahoratini boshlang‘ich elementlarini o‘zlashtirishda katta yordam beradigan mashqlardan yana biri bu “buyumlarni” jonlantirish jarayonidir. Bundan tashqari bu mashq talabalarning ijodiy tasavvurlarini boyitib badixago‘ylik, holatni oqlash, buyumning ichki mohiyatini ochish kabi xislatlarini shakllantiradi.

4 mavzy: Psixofizik xususiyatlar mashqi.

Aktyorlik mahorati darsida ham xuddi harbiy xizmatdagi kabi “temir intizom” bo‘lmas ekan, bu murakkab kasbni egallab bo‘lmaydi. Chunki, sahna san‘ati sintetik san‘atdir. U boshqa san‘at turlarini ham o‘zida qamrab oladi. Yana grim, pantomimo, raqs, musiqa va so‘z san‘ati uyg‘unligida sahnada obraz yaratish mahorati ham navbatdagi bosqichlarda o‘zlashtiriladi.

Obraz ustida ishlayotgan aktyorda yuqorida qayd etib o‘tilgan sahna san‘ati turlaridan birortasi kamlik qilsa, bu aktyor mukammal obraz yarata olmaydi. Masalan: aktyorning so‘z san‘atida kamchiligi – defekti bor deylik. Ya‘ni, masalan “R” harfini aytolmaydi. Yoki musiqani eshitish qobiliyati yo‘q, u speyktakl tempo-ritmini xis qilmaydi, ariya duetlarni kuylayolmaydi. Raqs, sahna harakati, pantomimo bilan tanishmagan aktyor o‘z gavdasini boshqarolmaydi.

Mukammallik talab qiladigan sahna san‘atiga bo‘lgan muqaddas xurmat tuyg‘usi talabalikning ilk bosqichidan guruhda shakllanishi kerak. Shuning uchun birinchi bosqich darslaridagi guruhli mashqlar temir intizom asosiga quriladi. Chunki, intizom bor joyda aktyor uchun eng zarur bo‘lgan sahnaviy diqqatni shakllantirish mumkin.

5 mavzy: Voqea, faktga munosabat va voqeaga baho.

Speyktakl yetakchi xatti – harakatida sodir bo‘ladigan xodisa. Voqea – shaxslarni kurash va maqsad mantig‘ini o‘zgartirish bilan birga aniqlashtiradi ham. Voqea - sahnaviy xatti-harakatning yorqin bosqichlaridan biri hamda tomoshaviylik birligi. Voqea- ay damdagi hayot bo‘lib, u bizning ko‘z o‘ngimizda kechadi. U sahnada ro‘y beradig yagona tomosha hisoblanadi. Sahnada yoki qadr ortidagi voqea – bu berilgan shart-sharo avval bo‘lib o‘tgan voqea hisoblanadi.

6 mavzy: Sahnaviy muhitni yaratish usullari

Sahnaviy muhit bu - xatti-harakat sodir bo‘layotgan makondagi kayfiyat, joy vaqtni his qilish. Bularning hammasi qahramon, ijrochilar va tomoshabin qalbida hissa taassurot tug‘diradi.

7 mavzu: Sodda jismoniy harakatlar.

Bu spektaklni stol atrofida ishlash jarayoni bilan birga, sahnadagi etyud repetitsiyani o'z ichiga oladi. Bu - asarning berilgan shart – sharoitlarida aktyorni ruhiy jismoniy hayot kechirish jarayonining birikmasi. Rol so'zlari yodlanmaydi. Matn o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday ish jarayonida ijodiy fikrlash doirasi aktyorlar izlanishi faollashadi.

8 mavzu: Etyud kompozitsiyasi

Etyud inson faoliyatining ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy sifatlarini ko'rsatib berishlikni o'z ichiga olishi kerak bo'ladi. Inson qanday fikrlaydi, ehtirosli vaziyatlarda o'zini qanday tutadi? Avvaliga gapirib berishdan boshlab, keyinchalik shunday holatlarni ko'rsatib berishga o'tish kerak. O'qituvchi, voqealar tanlashni talabalar ixtiyoriga topshiradi. Manbani, voqelarni talabalarning o'zi tanlab, ko'rib o'zi kuzatadi. So'ngra o'zi ko'rsatadi. Misol uchun biri sartarosh, ikkinchisi do'xtir, uchinchisi etikdo'z, to'rtinchisi boks maydonidagi sudya. Bunday mashq va etyudlarning son-sanog'i yo'q.

9 mavzu: Musiqa asosida etyud yaratish

Musiqa avvaliga sodda etyud, keyinchalik murakkabroq musiqiy etyud va nihoyatda murakab musiqiy etyud ohanglarni taratishi kerak bo'ladi. Endi musiqasiz bajarilgan mashq bilan musiqa jo'rligida ma'lum maromga bo'ysungan holda bajarilgan mashqlarni bir-biriga solishtirsak, ular o'rtasidagi katta farqni sezishimiz mumkin. Ilgari har kim o'z holicha bajargan harakatlar, musiqa jo'rligida ma'lum shaklga kirib, umumiy marom hukm surganligini bunda qandaydir ma'no kashf bo'lganligini va oxir-oqibat qilgan ishimizdan o'zimiz ham mamnun bo'lganligimizni his qilamiz. Xuddi shu hissiyot ijod nashidasi hisoblanadi.

10 mavzu: Ovoz va plastikani uyg'unlashtirib kompozitsiya tuzish

Ovoz va plastika aktyor sezgi xissiyotlarini ifodalovchi bosh mezonlaridan biri hisoblanadi. Yosh rejissyor va aktyorlar ongiga avvaldan ma'lum va muhim fikrni, ya'ni aktyor ovozidan shunchaki foydalanish emas (bu xususiyat har bir to'laqonli sog'lom insonning qo'lidan keladi) balki o'z ovozini boshqaruvchi mutaxassis bo'lishi kerak, degan fikrni targ'ib etish, singdirishi maqsadga muvofiq. Mazkur fikr hech bir isbot va dalil talab etmaydi.

1-mavzu: Sahna harakatining asosiy elementlari

Aktyorlik mahoratida hatti-harakat va so'z uyg'unligi

Tomoshabinlar bilan saxnani bog'lashda aktyor eng asosiy vazifalardan birini bajaradi. Aktyor ijrosidagi so'zning ma'naviy, nafis jozibasi, aytilayotgan har bir fikrning, olg'a surilayotgan g'oyaning tomoshabin uchun tushunarli bo'lishi aktyor xatti – harakatdagi ifodasi bilan uzviy bog'lik. Shunday jumlar mavjudki, aktyor uni oddiy xatti – harakat bilan xam yetkazishi mumkin. Aynan mana shunday ijrolar aktyor uchun katta yutuk olib keladi. Umuman “aktyor” so'zi-lotincha “action”, “akt” so'zidan olingan bo'lib, “xatti-harakat kiluvchi” degan ma'noni bildiradi.

Aktyor kuchli, irodali, intiluvchan, akrobatik harakatlar kila oladigan, o'k otishni bilish bilan birga plastik kobilyatga ega bo'lishi lozim - deb takidlaydi K.S.Stanislavskiy.

2-mavzu. Metronom haqida tushuncha

Metronom nima? Metronom nima uchun ishlatiladi? Metronom musiqa o'rganuvchilar uchun ritmni to'g'ri eshitish va farqlash uchun yaratilgan asbob. Metronomga maxsus temp o'rnatilib, musiqa o'rganuvchilarga muayyan vakt oralig'ida ritm zarbalarining urg'ularini aniklashga yordam beradi. Sahna harakati darslarida xam metronomdan keng foydalaniladi. Metronom ijro etilayotgan musiqa takti ichidagi birinchi zarbga urg'u beradi va bu uchun muljallangan mashqlar musiqasining ulchovlari asosan 2/4, 3/4, 4/4, 3/8, 6/8 ulchovlardan iborat bo'ladi.

3-mavzu. Sahna harakatining boshlang'ich mashqlari

Sahna harakatining boshlang'ich mashqlari ushbu mashqlar asosan talabalarninig saxnada erkin, musiqaga mos yurishlari uchun yordam beradi. Talabalar bo'y – bo'yiga qarab saf boshiga yigitlar so'ngra qizlar bir kator kilib saflantiriladi. Boshlang'ich xolat qaddini rostlab turish (tovonlar birlashgan, oyoq uchlari juftlashmagan, ko'llar ikki yonga tushirilgan). Qadni tik rostlab turiladi bosh to'g'riga karaydi, ko'zlar to'g'riga qadalgan, ko'krak ko'tarilgan, yelkalar salgina orkaga, korin ichga tortilgan, tizzalar tekislangan, ko'llar pastga erkin tushirilgan bo'lishi lozim. Har bir yigit – qiz mashqlarni bajarishga tayyor xolda turishi kerak. Mashqlarni o'rganish jarayonida metodik ko'rsatmalarga e'tibor berib bajarish maqsadga muvofik deb xisoblaymiz.

4-mavzu. Diqqat va koordinatsiyani rivojlantiradigan mashqlar

Ushbu mashqlar oddiy bo'lsada talabalarni o'z gavdasini o'ziga buysundirishida katta yordam beradi. Koordinasiya mashqlari diqqatni charxlab, saxnadagi qaltirashlar va xayajonni yengishda muxim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu mashqlar oddiy va oson bo'lib, bu mashqlarni o'zlashtirish xam qiyinmas. Bu mashqlar gurux talabalarining bir xil shakllanishida, yelka, bo'yin va bo'g'inlarni erkinlashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga musiqani eshitish va xis qilishda katta axamiyatga ega. Ushbu mavzudagi mashqlarga erishishda diqqat-e'tibor har bir harakat toki salkam g'ayri ixtiyoriy ravishda ijro etilish darajasiga kelgunga qadar aktiv takomillashtira borishi zarur. Bunga tezda erishish mumkin, ana o'shanda mashq o'z maromiga yetadi. Shu bois, mashqlarni qaytarar ekanmiz uni qandaydir yangi topshiriqlar bilan to'ldirib turish kerak.

5-mavzu. Gimnastik yog'ochlar bilan bajariladigan mashqlar

Quyida keltiriladigan mashqlar Gimnastik yog'ochlar bilan bajariladi. Ushbu mashqlar bo'lg'usi aktyorlar, rejissyorlarni tanasini tarbiyalashda katta yordam beradi. Gimnastik yog'ochlar bilan bajariladigan mashqlar umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishida, yelka, bo'yin, tizza va boshqa bo'g'inlarni erkinlashtirishga katta yordam beradi. Bundan tashqari talabalar "Tayoq xassa" mashqi orqali xassa

Tayoqlar (trost) bilan yurishning bir nechta turlarini o'rganishadi. Aktyor saxnaga chiqqanda albatta qaysidir kasb egasining yoki biron bir qaxramonning harakterini ijro etadi. Ushbu mashq xassa tayoq orqali har xil qaxramonlarning harakterlarini topishda yosh aktyorlarga yordam beradi. Gimnastik yog'ochlar bilan bajariladigan mashqlar talabalarning saxnada bir-birlarini yaxshi xis etishini xam tarbiyalaydi. Ya'ni saxnadoshni (partnyorni) xis etish qobiliyatini rivojlantiradi.

6-mavzu. Harbiycha yurish.

Dastlabki xolat. "Rostlan!" buyrug'idagi kabi. Gurux "Gurux o'ngga!" buyrug'i bilan o'nga buriladi va "Zalni aylanib kelish uchun!" shaxdam qadam bos buyrug'i bilan yuriladi. Ijro texnikasi. Qadam chap oyoqdan boshlanadi. Qadam tashlash jarayonida: Tizzalarni bukmasdan oyoqlar uchini cho'zib, 35-40 sm balandlikka ko'tarilib qadam qo'yiladi. Chap oyoq oldinga cho'zilganda, o'ng qo'l tirsakdan qayrilib oldinga chiqadi va chap qo'l tirsagi qayrilmasdan orqaga uzatiladi. O'ng oyoq oldinga cho'zilganda, chap qo'l tirsakdan qayrilib oldinga chiqadi va o'ng qo'l tirsagi qayrilmasdan orqaga uzatiladi. Metodik ko'rsatmalar. Har bir talaba oralig'idagi masofa (destansiya) qo'l uzunligicha. Bosh har doim to'g'riga qaraydi. Qadam tashlashda qomat har doim rost xolatda saqlanadi. Musiqa jo'rlik qiladi. Marsh o'lchami 4/4.

7-mavzu. Murakkab mashqlar qismi

Akrobatika. Umbaloq oshish qoidalari

Mashqlar avval mat ustida so'ngra polda bajariladi. Oldinga o'ng yelka orqali umbaloq oshish. Daslabki xolat: oyoqlar juft bosh oldinga karagan. Ijro texnikasi. O'ng oyoq bir qadam tashlanadi. Gavda o'ng oyoqqa tayanib ikki qo'l kaft bilan yerga tiraladi. O'ng oyoq tizzasi tirsakdan tashqari tomonga olinadi va o'ng tirsak ichkari tomonga bukiladi. Bosh chap tomonga tortilib, butun gavda o'ng yelka ustidan aylanib oldinga o'tadi. Oldinga o'tish jarayonida o'ng oyoq tizzasi bukilsa, gavda o'z aylanish teligi bilan avval o'ng oyoqqa so'ngra chap oyoqqa tiralib qad rostlanadi. Metodik ko'rsatmalar. Yelka orqali umbaloq oshgan har ikki qo'l kafti yerdan uzilmasligi kerak. Og'irlik avval kaftlarga, keyin yelkaga o'tadi. Boshni polga urmasdan yelka ustidan yengil dumalanadi. Ushbu mashq avval sekin so'ngra tez bajariladi. Mashqni davom ettirish uchun yana bir qadam oldinga tashlab bajariladi.

8-mavzu. Buyumlar bilan umbaloq oshish

Ushbu mashq asosan aktyorlarga saxnada buyumlar bilan xatti-harakat qilishni, shu bilan birga buyumlar bilan dumalashni o'rgatadi. Buyumlar bilan dumalashni o'rganish uchun biz saxna harakati darsida gimnastik yog'ochlardan, aylana shaklidagi fanerli patnoslardan foydalanamiz. Mashqlar to'liq o'zlashtirilsa, atrivkalarda, etyudlarda, spektakllarda bu buyumlar o'mida qurollar, nayzalar kamonlar, qalqonlar yoki qo'lidagi boshqa buyumlar bilan xam bemalol dumalashi mumkin bo'ladi. 23-mashq. Gimnastik yog'ochlar bilan oldinga dumalash (o'ng

yelka bilan). Dastlabki xolat. Yog'ochlarni ikki chetidan bosh barmoq bilan maxkam siqib ushlab olingan, oyoqlar yelka kengligida.

Ijro texnikasi. O'ng oyoq bilan oldinga bir qadam yuriladi. Yog'ochni ushlagan xolatda musht yerga qo'yiladi. O'ng tirsak ichkariga qarab qayriladi. Bosh chap yelkaga tortilib, o'ng yelka ustidan umbaloq oshiladi. Metodik ko'rsatmalar.

Mashqni davom ettirish uchun qad rostlanib, bir qadam oldinga yurish bilan davom ettiriladi. Diagonal bo'yicha dumalab oxiriga yetgan talabalar qomatni ushlagan xolda boshini egib, ko'tardi va safni oxiridan safga qo'shiladi.

9-mavzu. Diogonal bo'yicha yurib, salom berish.

40 mashq. Dastlabki xolat "Rostlan" buyrug'ida turish. Ijro texnikasi. Guruxni "Gurux o'ngga!" buyrug'i bilan guruxni o'ngga burish; "To'g'riga qadam bos", "Olg'a qadam bos", "Zal bo'ylab qadam bos!" buyrug'i bilan xamma birgalikda chap oyoqdan boshlab qadam tashlaydi. Yurish qoidasi; Tizzalarni bukmagan xolda oyoq uchini 35-40 sm balandlikka ko'tarib yurish. Musiqa jo'r bo'ladi. Marsh har minutiga 108 - 110 zarb metronom tempida. Saf boshida turgan boshlovchi zalning orqadagi o'ng burchagiga borganda "Diogonal bo'ylab yur!" buyrug'i bilan gurux diogonal bo'ylab (tomoshabinga nisbatan) zalning old tomondagi chap burchagi tomonga yuradi va burchakka kelganda chap oyoqqa mostlab boshni egib keyingi chap oyoq qadamida boshini ko'tarib yurishda davom etadi. Boshlovchi zalning orqasidagi chap burchagiga borganda yana o'sha buyruk bilan boshqa diogonal bo'yicha zalning old tomondagi o'ng burchagi tomonga yuradi va burchakka kelganda oxirgi chap oyoq qadimiga mostlab boshini egib keyingi chap oyoq qadamiga boshini ko'tarib yuradi va yon tomonga bir chiziqqa xamma tiziladi "Gurux to'xta!" buyrug'i bilan "Bir" "Ikki"ga to'xtaydi.

III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus adabiyotlardagi fanga oid bo'lim va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha darsni o'zlashtirish;

- talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ishlar ayrim asarlarning ijro talqinlari musiqiy yozuvlarini tinglab ko'rish, tajriba repetitsiyalar vositasida o'z ijodiy yoki ijro yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. To'siqlar ustidan oshib o'tish mashqlari
2. Stol bilan bajariladigan mashqlar.

	<p>3. Diqqat va koordinatsiyani rivojlantirish uchun mashqlar.</p> <p>4. Tana mo‘shaklarini bo‘shatish mashqlari.</p> <p>5. Qilichbozlik mashqlari</p> <p>6. Dekoratsiya, rekvizit va turli buyumlar bilan bajariladigan mashqlar.</p> <p>7. Hassa bilan turish holatlari</p> <p>8. Pichoq bilan hujum va himoyalani.</p> <p>9. Plashdan qurol sifatida foydalanish</p>
3.	<p>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - musiqiy parchalar, ariya va qo‘shiqlar mazmunini ochib beradigan harakatlar tizimi <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>; – tana mo‘shaklarini bo‘shatish sahna harakatlarini; – uquvchanlik va aloqa qilishni; – aristokratlarga xos xulq-atvorni; – pantomima – harakat jarayonini egallash <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; – sahnada kurash va yiqilishni o‘rganish; – reverans; – aristokratlarga xos ta’zim qilish; – uzun ko‘ylakdan, shlyapadan, yelpig‘ichdan, to‘g‘ri foydalanish; – sahnada erkin tarzda harakatlana olish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Amaliy mashg‘ulot; • interfaol keys-stadilar; • individual ijodiy loyihalar; • jamoa(ansambl) bo‘lib ishlash uchun ijodiy loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan musiqiy-sahnaviy asarlar haqida mustaqil mushohada yuritish, musiqiy sahna asarining ifoda vositalariga oid tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan musiqiy-sahna asarining badiiy jihatlarini aniqlash, aktyorlik mahorati va sahna harakati bilan bog‘liq o‘rganilayotgan asar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, o‘rganilayotgan asarlarni nazariy tahlil etish va sahnaviy ijrochilik uslublarini aniqlash va joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha imtihonda ishtirok etish.</p> <p>Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .</p> <p>Talabalar bilimni nazorat qilish o‘quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va Yakuniy nazorat 7,8 semestrlarda o‘tkaziladi.</p> <p>7chi semestr</p>

Oraliq nazorat

1. Aktyorlik mahorati va sahna harakatining asosiy elementlari:tasavvurdagi predmetlar bilan ishlash, predmetlarni jonlantirish, hayvonot olamini kuzatish, odamlarning odatlari va harakteridagi o'ziga xosliklarni kuzatish kabi ko'ninmalarni bajarish;
2. Metronom bilan ishlash, diqqat va koordinatsiyani rivojlantirish bilan bog'liq mashqlar majmuasini topshirish;
3. Plastik mashqlar, jismoniy erkinlik, faktga munosabat, baholash, qaror qabul qilish kabi elementlarni etyudlar orqali ko'rsatib berish;
4. Yakka va ansabl bilan bajariladigan musiqiy etyudlarni ijro etish;
5. Sahnada umbaloq oshish, gimnastik yog'ochlar bilan bajariladigan mashqlar, patnos mashqlari, tarixiy salomlashish mashqlarini bajarish;

Yakuniy nazorat

1. Aktyorlik kuzatuvlari bilan bog'liq etyudlar bajarish;
2. Diqqat va koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish;
3. Yakka va ansabl bilan bajariladigan musiqiy etyudlarni ijro etish;
4. Gimnastik yog'ochlar bilan mashqlar va tarixiy salomlashish turlarini ko'rsatish;

8chi semestr

Oraliq nazorat

1. Psixofizik xususiyatlar mashqi; Sahnaviy muhitni yaratish usullari; Tasavvur va fantaziya;
2. Sahna jangi mashqlari: shapaloq tortish va himoyalanish qoidalari; tepish va himoyalanish qoidalari;
3. Sahnaviy tasodiflarni oqlash mashqlari, masal, monolog, she'riy matnlarni aktyorlik mahorti orqali sahna talablariga mos ijro etish;
4. Sahna qurollari bilan ishlash: pichoq, qilich, shpaga bilan bajariladigan mashqlar;
5. Opera asarlaridan parchalarni sahnalashtirish;
6. Akrobatika va sahna jangi asosida etyudlar ko'rsatish;

Yakuniy nazorat

1. Opera spektaklidan ariya, duet va ansamblda ijro etish;
2. Sahna harakati va sahna jangi mashqlari asosida sahnaviy parchalar ko'rsatish;
3. Opera spektaklida tugallangan sahnaviy ko'rinish yoki kichik bir akti ijro etish;

DIPLOM ISHI

O'QUV YILI DAVOMIDA O'ZLASHTIRILGAN BILIM VA KO'NIKMALAR ASOSIDA IMTIHON DASTURI TOPSHIRISH HAMDA DAVLAT ATTESTATSIYA IMTIHONIDA OPERA SPEKTAKLIDA QATNASHISH.

Asosiy adabiyotlar

1. Stanislavskiy K.S. Aktyorning oz ustida ishlashi. "Yangi asr avlodi".Toshkent-2011y.
2. Kristi G, Sobolevskaya O. Stanislavskiy – reformator opernogo iskusstva. "Muzika", 1983.
3. Ismoilov A.F. Saxna kilichbozligi. - T., 2004.
4. Drozdin A. Ssenicheskaya akrobatika. - M., 2005.

5. Ismoilov A.F. Saxna kilichbozligi."Yelektron darslik"-2008.
6. Sh.Usmonov "Saxna harakati va jangi". "Navruz". Toshkent-2014y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.- 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutqi. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza.

Axborot manbalari

7. www.ziyonet.uz – O'zbekiston ta'lim portali
8. <http://www.uzbekteatrskm.uz>- "O'zbekteatr" IChB
9. <http://www.muz-urok.ru/> Noti, knigi o muzike, uchebniki po muzike.
10. <http://lib-notes.orpheusmusic.ru/news>
6. www.compozitor.spb.ru/
7. www.sanat.orexca.rus/
8. <http://yontheatre.uz/istoriya/>
9. <http://classic.manual.ru/> - Klassik musiqa namunalari
10. <http://opera-class.com/index.html>

7.	Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» _____ o8_____dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Haydarov U.A.- O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida katta o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Radjabov A.A - O'zbekiston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida professori Sultonov N.N. - O'zbekiston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida professori